INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA OTM TALABALARIDA ANALITIK VA PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Mardonova Elmira Shuhrat qizi
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
Pedagogika nazaryasi va tarixi mutaxassisligi 1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.21498251

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalarida analitik va professional kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqot davomida kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar asosida talabalarning analitik fikrlashini, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini hamda kasbiy qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan model ishlab chiqildi. Shuningdek, modelning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali baholanib, uning talabalarning kasbiy tayyorgarligi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi ijobiy ta'siri asoslab berildi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni tashkil etish, kompetensiyaga asoslangan o'qitish va baholash tizimini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.
Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, analitik kompetensiya, professional kompetensiya, integrativ yondashuv, differensial ta'lim.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical foundations for developing analytical and professional competencies among higher education students in the context of inclusive education. The study proposes a model based on an integrative approach, incorporating the stages of identification, classification, pedagogical analysis, and professional decision-making. The results demonstrate that this approach contributes to the development of students' critical thinking, their ability to analyze problem situations, and to generate practical solutions. At the same time, it supports the assessment of students' knowledge and competencies under modern evaluation conditions.
Keywords: inclusive education, analytical competence, professional competence, integrative approach, differentiated education.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические основы развития аналитических и профессиональных компетенций у студентов высших образовательных учреждений в условиях инклюзивного образования. В исследовании предложена модель, основанная на интегративном подходе, включающем этапы идентификации, классификации, педагогического анализа и принятия профессиональных решений. Результаты показывают, что данный подход способствует формированию у студентов критического мышления, навыков анализа проблемных ситуаций и разработки практических решений. В то же время он содействует оценке знаний и компетенций студентов в современных условиях оценивания.
Ключевые слова: инклюзивное образование, аналитическая компетенция, профессиональная компетенция, интегративный подход, дифференцированное обучение.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon nafaqat imkoniyati cheklangan talabalar uchun teng sharoit

yaratishni, balki barcha talabalar kompetensiyalarini rivojlantirishni, ijtimoiy muhitda tenglik hada adolatlilik tamoyilini qo‘llab quvvatlashni ham nazarda tutadi.Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda talabalarning bir qancha kompetensiya va qobiliyatlarini shakllantirish, ta’lim muhitini yanada samarali tashkil etilishini qo’llab quvvatlaydi.

OTM talabalarida analitik va professional kompetensiyalarni shakllantirish zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassis tayyorlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim muhitida talabalar turli ijtimoiy va individual farqlarga moslashish, muammolarni tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Shundan kelib chiqqan holda taklif etilayotgan topshiriq strukturasi yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etishga hamda talabalarni bilim va kompetensiyalarini baholashga ko’maklashadi va quyidagi bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Identifikatsiya va klassifikatsiya bosqichi

Ushbu bosqichda talabalar inklyuziv ta’lim muhitidagi ba‘zi bir elementlarni aniqlaydi va quyidagi guruhlarga ajratadi:

a) assistiv vositalar - bu maxsus ehtiyojga ega shaxslarning (jumladan, nogironligi bo‘lgan talabalar) ta’lim jarayonida to‘liq, samarali va mustaqil ishtirok etishini ta’minlash uchun qo‘llaniladigan texnik, texnologik va moslashtirilgan vositalardir.

Assistiv vositalar bir qancha ko‘rinishlarga ega bo‘lib maxsus ehtiyojning ko‘rinishiga qarab turlarga ajratiladi .

b) axborot-kommunikatsiontexnologiyalar- ushbu turdagi axborot kommunikatsion texnologiyalar ko‘zi ojiz yoki zaif ko‘ruvchi talabalar uchun muhim hisoblanib, matnni ovozga yoki ovozni matnga aylantiruvchi dasturlar, brayl yozuvli vositalar, kattalashtiruvchi qurilmalar, yoki maxsus ilovalarda o‘z aksini topadi.

c) harakatlanish va jismoniy qulaylik yaratuvchi vositalar - bu turdagi vositalar tayanch harakatlanish a’zolarida nuqsoni bor va maxsus ehtiyojga ega bo‘lganlar uchun qulayliklar yaratadi. Nogironlar aravachalari, maxsus pandus va liftlar, moslashtirilgan stol hamda stulchalar qulaylik yaratish uchun mo‘ljallangan vositalardir.

d) eshitishda nuqsoni bo‘lganlar uchun qulaylik yaratuvchi vositalar - eshitish soha doirasida muammosi bo‘lganlar uchun qulaylik tug‘diradigan vositalar hisoblanib, quyidagi tartibda klassifikatsiya qilinadi; eshitish apparatlari, o‘qituvchi ovozini kuchaytiruvchi apparatlar, subtitrli vedio materiallar kabilardir.

2. Analitik tahlil bosqichi

Talabalar bu bosqich orqali inklyuziv ta’lim muhitini baholaydi, 672 edagogic tamoyillarni aniqlaydi va samaradorlik omillarini tahlil qiladi. Tahlil qilish jarayonida talaba “ Qanday qulaylik mavjud” degan savolga javob qidiradi. Aniqlagan elementlarini guruhlarga ajratadi hamda holatdan kelib chiqib qanday tamoyillar amalga oshirilganligini belgilaydi. Tamoyillar muhitda tashkil etilgan element va vositalarni “ Nima uchun shunday tashkil etilgan” degan savolga javob berishi uchun xizmat qilib, quyidagi tartibga asoslanadi;

- Teng imkoniyat
- Moslashuvchanlik
- Individual yondashuv
- Inklyuziya va integratsiya

Tamoyillarga bo‘ysunuvchi holatlar aniqlanganidan so‘ng analitik tahlil qilinadi va qaysi element talabalarning faolligini oshirayotganini, muammolar va cheklovlar tug‘dirayotganini belgilaydi.

3. Professional qaror qabul qilish bosqichi

Talabalar muammoli vaziyatlarga nisbatan aniq pedagogik va amaliy yechimlar ishlab chiqadi. Mazkur bosqichlar talabalar kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Kompleks kompetensiyalardan biri analitik kompetensiya hisoblanib, analitik kompetensiya — bu talabaning ma’lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa

chiqarish qobiliyatidir. Inklyuziv ta’lim sharoitida bu kompetensiya quyidagi sharoitda shakllanadi: ta’lim muhitini kuzatish va elementlarni aniqlash; ma’lumotlarni tizimlashtirish va klassifikatsiya qilish; pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish; sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlashva shu kabi holatlardir. Yuqorida sanab o‘tilgan sharoitlar amaliy darslarda mujassamlashtiriladi. Amaliy topshiriqlar asosida talabalar real vaziyatlarni tahlil qilish orqali o‘z analitik fikrlashini rivojlantiradi. Analitik kompetensiyalar bilan bir qatrda professional kompetensiyalar ham inklyuziv ta’lim muhitida samarali hisoblanib, professional kompetensiya talabaning kelajak kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ifodalaydi hamda quyidagi shart sharoitlar orqali shakllantiriladi: muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish; individual yondashuvni taklif qilish; innovatsion yechimlar ishlab chiqish; jamoaviy hamkorlikda ishlash. Ilovada keltirilgan topshiriqning uchinchi bosqichi aynan shu kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tadqiqot ma’lumotlaridan kelib chiqqan holda Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika Institutining quyidagi fakultet talabalarida tadqiqot ishlari olib borildi.Taqdiqot jarayonida 100 nafar talaba ishtirok etdi. Tadqiqot olinishidan avval talabalarning analitik va professional kompetensiyalari o‘rtacha darajani ko‘rsargan bo‘lsa, integrativ baholashning ushbu ko‘rinishi taqdim etilgandan so‘ng talabalarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichi quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ldi:

№	Fakultet nomi	Talabalar soni	Ulushi (%)
	Pedagogika		
1	Maktabgacha ta’lim 24_05	25	70 %
2	Maktabgacha ta’lim 24_06	27	75 %
3	Musiqa ta’limi 24_07	25	85 %
4	Texnologik ta’lim	23	80 %
	Jami	**100 nafar**	**77.5** %

Demak, tadqiqotning asosiy tayanch bazasi Pedagogika fakulteti talabalari hisoblanadi. Tadqiqotda jami 100 nafar talaba ishtirok etdi. Shundan 25 nafari (25%) Maktabgacha ta'lim 24–05 guruhi, 27 nafari (27%) Maktabgacha ta'lim 24–06 guruhi, 25 nafari (25%) Musiqa ta'limi 24–07 guruhi hamda 23 nafari (23%) Texnologik ta'lim yo‘nalishi talabalaridan iborat bo‘ldi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, Maktabgacha ta'lim 24–06 guruhida analitik va professional kompetensiyalarni rivojlantirish ko‘rsatkichi 75 foiz, Maktabgacha ta'lim 24–05 guruhida 70 foiz, Texnologik ta'lim yo‘nalishida 80 foiz hamda Musiqa ta'limi 24–07 guruhida 85 foizni tashkil etdi. Umumiy hisobda barcha ishtirokchilar kesimida o‘rtacha ko‘rsatkich 77,5 foizni tashkil etdi. Bu natija talabalarda analitik va professional kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, natijalar turli ta'lim yo‘nalishlari talabalari o‘rtasida kompetensiyalarni rivojlantirish darajasida ma'lum farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, Musiqa ta'limi yo‘nalishi talabalari eng yuqori (85%) natijani qayd etgan bo‘lsa, Maktabgacha ta'lim 24–05 guruhi talabalari orasida bu ko‘rsatkich nisbatan pastroq (70%) bo‘ldi. Bu esa ta'lim yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda mashg‘ulotlarda qo‘llanilgan metodlarning samaradorligi bilan izohlanishi mumkin.

Olingan natijalar ishlab chiqilgan metodika va inklyuziv ta'limga asoslangan yondashuv talabalarning analitik fikrlashi, kasbiy muammolarni tahlil qilish va professional

kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois mazkur metodikani pedagogika yo‘nalishining boshqa guruhlarida ham joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bundan tashqari inklyuziv ta’limda kompetensiyalarni rivojlantirishning omillari tahlillar asosida quyidagicha tartib asosida keltirilgan:

1. Amaliy yo‘naltirilgan topshiriqlar

Taalabalarga hayotiy aziyatlarga asoslangan topshiriqlar beriladi. Bu topshiriqlar asosida talabalar o‘zlarining munosabatlarini bildiradilar. Real vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar talabalarni faol fikrlashga undaydi.

2. Integrativ yondashuv

Bu turdagi topshiriqlar ilmiy manbalarda asoslangan nazariy manbalarga tayangan va shu bilan birga amaliy vaziyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Nazariya va amaliyotning uyg‘unligi kompetensiyalarni chuqur shakllantiradi.

3. Refleksiv faoliyat

Berilgan topshiriqlar asosida talabalar bir birlarining fikrlarini muhokama qiladilar va yechim beriladi. Talabalar o‘z fikrlarini tahlil qilish orqali bilimlarini mustahkamlaydi.

4. Inklyuziv muhit

Inklyuziv ta’lim muhitiga ehtiyojman bo‘lgan talabalar bilan bir qatorda hech qanday nuqsoni bo‘lmagan talamar birgalikda bilim oladilar. Turli ehtiyojga ega talabalar bilan birga o‘qish ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalar bilimini chuqurlashtiradi va ularni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi. Inklyuziv ta’lim esa bu jarayonni yanada boyitadi, chunki unda talabalar turli ijtimoiy guruhlar bilan muloqotda bo‘ladi va kengroq fikrlashni o‘rganadi.

Mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan inklyuziv ta'lim sharoitida talabalarning analitik va professional kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar pedagogika fakultetining Maktabgacha ta'lim 24–05, Maktabgacha ta'lim 24–06, Musiqa ta'limi 24–07 va Texnologik ta'lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan 100 nafar talaba ishtirokida tajriba-sinov tariqasida qo‘llanildi.

Tajriba jarayonida muammoli ta'lim, keys-stadi, loyiha ishlari, guruhli muhokamalar, refleksiv tahlil hamda amaliy mashg‘ulotlardan foydalanildi. Mashg‘ulotlar davomida talabalarning analitik fikrlash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning analitik va professional kompetensiyalarini rivojlantirish ko‘rsatkichlari ijobiy o‘sishga erishdi. Jumladan, Maktabgacha ta'lim 24–05 guruhida 70%, Maktabgacha ta'lim 24–06 guruhida 75%, Texnologik ta'lim yo‘nalishida 80% va Musiqa ta'limi 24–07 guruhida 85% natija qayd etildi. Umumiy o‘rtacha ko‘rsatkich 77,5%ni tashkil etdi.

Tajriba-sinov natijalari ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tasdiqladi hamda uni oliy ta'lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarning analitik va professional kompetensiyalarini rivojlantirishda qo‘llash maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur metodik tavsiyalarni pedagogika yo‘nalishidagi fanlar mazmuniga bosqichma-bosqich joriy etish ta'lim sifati va talabalarning kasbiy tayyorgarligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Inklyuziv ta’lim sharoitida OTM talabalarida analitik va professional kompetensiyalarni rivojlantirish samarali mutaxassis tayyorlashning muhim omili hisoblanib, talabalar bilim va kompetensiyalarini baholashda qulayliklar yaratishi va ta’lim muhitining samarali tashkil etilishi hamda talabalarning o’zlashtirish ko’rsatkichini oshirishiga erishish mumkin ekanligi

xulosa qilindi. Shu bilan bir qatorda taklif etilgan integrativ model quyidagi imkoniyatlarni bera olishi tahmin qilindi:

- talabalarning analitik fikrlashini rivojlantiradi;
- amaliy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi;
- kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi;
- oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy muhit ijobiyligi oshadi.

Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim sharoitida analitik va professional kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Nazariy tahlillar hamda tajriba-sinov ishlari natijasida ishlab chiqilgan integrativ model talabalarning pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, tanqidiy va mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish hamda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi aniqlandi. Tajriba-sinov natijalari tajriba guruhida analitik va professional kompetensiyalarning rivojlanish darajasi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligini tasdiqladi. Bu esa ishlab chiqilgan metodikaning ilmiy asoslanganligi va amaliy samaradorligini ko‘rsatadi.

Kelgusida mazkur modelni boshqa ta'lim yo‘nalishlarida sinovdan o‘tkazish, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish hamda xalqaro tajribalar bilan integratsiyalash istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60- sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘risida” gi farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida” gi farmonini
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, 2020.
4. I.Madatov “Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish” - monografiya Andijon 2025
5. Karimov, N. (2021). Kompetensiyaviy yondashuv asoslari.
6. Shodmonov, Sh. (2022). Inklyuziv ta’lim metodologiyasi.
7. Yusupov, B. (2024). Oliy ta’limda innovatsiyalar.
8. Xudoyberdiyev, A. (2023). Maxsus pedagogika.
9. UNESCO (2020). Inclusion and Education: Global Education Monitoring Report.
10. OECD (2021). Education Policy Outlook.
11. Ainscow, M. (2020). Developing inclusive education systems.